Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

OXUNJON HAKIMOVNING POETIK MAHORATI

O'g'iloy Olimjon qizi G'aniyeva*
Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi
✉ ganiyevaogiloy505@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Oxunjon Hakimovning she'riyat olami, uning boshqa shoirlardan ajralib turuvchi poetik mahorati, she'rlaridagi metofora, kinoya, epitet va so'z tanlashning o'ziga xos jihatlari tadqiq etilgan. Obrazli tushuncha, ohangdor misralar,sifatli va jonli tasvirlar, ijodiy induviduallik tahlil ostiga olingan.

Kalit so'zlar

She'riyat, milliylik, ijod, obraz, ohang, mavzu, g'oya.

DOI: 10.5281/zenodo.21743318

Kirish

Ijodkorlik bu yaratuvchanlikdir. Demak, yaratilayotgan har qanday asardan o'quvchi yoki kitobxon o'ziga taalluqli mazmun, fikr, g'oyani qabul qiladi. Ushbu zavqdan o'zini anglaydi, o'z haqiqatini isbotlaydi, boshqalarni o'ziga ergashtira oladi. Ijod zavqi bu farzand zavqidek sevimli va suyumlidir. Sababi, farzand dunyoga kelsa ism qo'yasiz, asraysiz, ardoqlaysiz. Tadqiqotga kirishmoqchi bo'lgan adibimiz Ohunjon Hakimovning ham ijod yo'li o'zining ta'rifi bilan aytganda aynan mana shunday arqoli va suyumli edi. Uning turli mavzudagi ijodida individuallik ya'ni shoirning o'zigagina xos bo'lgan so'z, obraz, lirik qahramon va o'xshatmalar mavjud.

Badiiy asar tilining hamisha yangi ifoda usullari bilan boyitib, rivojlantirib borish lozim. So'z va fikrning tub mohiyatini ochib beradigan bunday usullar insoniy tuyg'u va intilishlarni qisqa va lo'nda tasvir orqali bayon etilishiga yordam berishi zarur. Shu ma'noda, badiiy detal yozuvchi g'oyasini ixcham shaklda kitobxonga yetkazishda o'ziga xos ifoda usuli sanaladi.[1] Bu esa biz tadqiqotga kirishayotgan adibimizning ijod yo'lida sezilarli darajada ifoda etiladi.

Adabiyot tahlillari

Shoir ijodida poetik vositalar o'rinli va maqsadli foydalanilgan. Ijod namunalarida shaklan oddiy, jo'n, lekin mazmun va falsafiy jihatdan o'tkir jumlalar, o'xshatlardan foydalanilgan. She'rlaridagi badiiy nutq elementlari mavzuni teran yoritishda, chuqur analiz qilishda va so'zni keng doirada qo'llay olishida seziladi. Adib o'zbek tilining boyligi, go'zalligi, teranligini boy obrazlarda, hayotiy misollar yordamida mujassamlashtirishga harakat qilgan. Ushbu adib haqida Sultonova O[2], Ismoilov S[3] va boshqalarning ilmiy maqolalarida tadqiq etilgan.

Tadqiqot metododlogiyasi

Ushbu maqolada analitik, germenevtik, struktural, ilmiy metodlardan foydalaniladi.

[1]Asomiddinova G./ BADIIY DETAL RUHIY TASVIR IFODASI SIFATIDA/Journal of Innova,on in Volume: 2 Issue: 6 Year: 2024 Educa,onal and Social Research. ISSN: 2992-894X | h"p://journals.proindex.uz

[2]Sultonova O. Ohunjon Hakimov publitsistikasida badiiy nutq elementlari/ https://scientific-jil.org/obr

[3]Ismoilov S. "Ommaviy axborot vositalari va publitsistika "- Toshkent:Universitet nashriyoti,2020

Tahlillar va natijalar

Shoir va yozuvchilarning o‘z qarash va ijodiy olamlari mavjud. Ohunjon Hakimovning ham ijod zavqiga to‘la olami mavjud edi. Shoir doimo shu daryoda oqib, undagi mavjlarida insonlarga turli xildagi qarashlarni singdirardi. Insoniylik, tafakkur qilish, olamni yaxshilik nigohlari ila ko ‘rish kabi turli hislatlarni she’rlari orqali xalqqa yo‘naltirgan oliy jamiyat “ tarbiyachi”si desak mubolag‘a bo‘lmas. Poetik mahoratidagi boshqalarga o‘xshamagan jihatlari- shoirning o‘z g‘oyasini badiiy obrazlar, so‘z o‘yinlari, ohang va shakl orqali ta’sirchan, yuksak estetik darajada ifodalash san’atidir. Bu tushuncha she’rning mazmuni va shakli birligini, ijodkorning o‘ziga xos uslubini anglatadi.

So‘z tanlash va tasvir san’ati: Shoirning so‘zdan o‘rinli foydalanishi, badiiy tasvir vositalari (o‘xshatish, metafora, metonimiya, jonlantirish) orqali obraz yaratishi. Xususan, “ Hamroz bilan” she’ridagi:

…Qolma oltin tog‘i birla, qol sadoqat istasang,
Odamiylik deb atalmish bebaho meros bilan.
Yo‘q, umr yo‘li uzunmas, zoye ketkurma uni,
Qaydagi nokas-u nomard , qaydagi vos-vos bilan[4].

Ushbu ajoyib asarda oltin tog‘ metaforasi orqali insonning oliy darajadagi insoniylik hissini ko‘rsatmoqchi va bu orqali jamiyatdagi shunday shaxslarni e’zozlash, ular bilan doimo sadoqat ila qolmoqni afzal ko‘rish va bunday odamlarni odamiyligi bor bebaho merosga o‘xshatish tasviri orqali shoirning poetik mahorati ajoyib tarzda ifoda etilgan.

Ohangdorlik va vazn: She’rlaridagi vazn (aruz, barmoq yoki erkin vazn), qofiya va radiflarning o‘zaro mosligi, ohangdorlik (ritm) orqali his-tuyg‘ularni kuchaytirish ham Ohunjon Hakimovning ijodidagi aynan adib mahoratining yanada kuchliroq ifodalanishga, she’rning eshitilish, yod olish va tahlil jarayonida foydali bo‘lmog‘i zarur. ” Na yulduzsan va na qunduzsan” she’ridagi to‘q va och qofiyalarlardan ustalik bilan foydalanilgan (qunduzsan, qizsan; yetmoq, chertmoq):

… Na yulduzsan va na qunduzsan, -a
(Oson edi ularga yetmoq) -b
Oddiygina yoqimtoy qizsan, -a
Ammo qiyin derazang chertmoq[5]. -b

Yoki “Shunday urib tursang, yuragim!” radifli g‘azalida she’rdagi ohangdorlik, ritm va barmoq vaznida yozilgan zamonaviy g‘azalning go‘zal namunasi deya e’tirof etiladi.

…. Gohi hurram, goh bo‘lib mahzun, poyonladim mana yoshlikni,
Rosti, kamroq eshitdim tahsin, quvib soldim lekin g‘ashlikni.
Tog‘dek turar edi ko‘kragim, shunday urib tursang, yuragim!

Yoki “Marhamat” nomli g‘azalidagi quyidagi baytlar:

Kutmangiz do‘stlar, sira ko‘ngli qarodin marhamat,
Besubut ham, beqaror, mosivodin marhamat.
Dardga dard, hasratga hasrat qo‘shilib qon qaqshatar,
Kutsangiz johil-u nodon, bedavodan marhamat…

Metafora, o‘xshatmalar, qarshilantirish, nido, mubolag‘a, epitet san’atlari hamjihatligida talqin etilgan ushbu baytlar, nafaqat insonni ezgulikka chorlash, balki ulardagi ayrim illatlarni quvish kabi g‘oyalarni ilgari suradi.

Turli tahlillar orqali izlanishning asosiy maqsadiga aylangan shoirning she’rlarida har xil mavzular talqin qilingan.

…. Odamlar, kun ko‘ring beg‘uluv,
Chiranmay, o‘kirmay, hashamsiz.
Qora marmarlarda yashamang,
Oppoq ko‘ngillarda yashangiz[6]!

[4]Hakimov O. Ko’zlaring o’zi qora. Toshkent.G’afur G’ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi.1992. –B.13
[5]Hakimov O. QO’llarim ko’ksimda. Toshkent. G’afur G’ulom nomidagiAdabiyot va san’at nashriyoti-1976.b-160
[6]O’sha kitob

Garchi she’r och qofiyada yozilgan bo‘lsa-da, kishi hayotdan oladigan katta dars uchun kichik satrlarga ega desam yanglishmagan bo‘laman. Chindan ham birovlarga hasad qilmay, chiranmay, kimlarnidir hashamdor hayotiga emas, o‘zining hayotidagi bor narsalariga shukur qilib yashash Oliy baxt ekani yuqoridagi she’rning satrlarida namoyon bo‘ladi.

Poetik obraz yaratish: She’r orqali o‘quvchida ma’lum bir tasavvur, kechinma uyg‘otish, g‘oyani emotsional ta’sirchan shaklda yetkazish. Bu shakldagi mahorat ham ijodkorimizning shoh asarlarida sezilib turadi. Fikrimiz isboti o‘laroq Ohunjon Hakimovning “ Turonzamin she’rlari” asaridagi ushbu jumlalarni izohlashimiz mumkin:

… Qondoshlar, tug‘ishqonlar,
Yakdil-u hamkor bo‘ling.
Buyuk Turon sizniki,
Unga nomus or bo‘ling…

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, poetik mahoratda shoirning til xususiyatlaridan ham kelib chiqib tahlil qilish mumkin. Shoirning she’rlarida xalq tiliga yaqinlik, she’rning ta’sirchanlik yuqori darajada ekani e’tirofga sazavor. Har satr, qofiyadosh so‘zlar, jumlalar, ifodaning yetkazilish yo‘sinida ham qiyin , g‘aliz jumlalar bilan emas, soda, jo‘n, ta’sirchan jumlalar orqali yetkazish asosiy
mahorati ekani sezilib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asomiddinova G./ BADIIY DETAL RUHIY TASVIR IFODASI SIFATIDA/Journal of Innova,on in Volume: 2 Issue: 6 Year: 2024 Educa,onal and Social Research. ISSN: 2992-894X | h”p://journals.proindex.uz
2. Ismoilov S. “Ommaviy axborot vositalari va publitsistika “- Toshkent:Universitet nashriyoti,2020
3. Hakimov O. Ko‘zlaring o‘zi qora. Toshkent.G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi.1992. –B.13
4.Hakimov O. Qo‘llarim ko‘ksimda. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagiAdabiyot va san’at nashriyoti-1976.b-160
Sultonova O. Ohunjon Hakimov publitsistikasida badiiy nutq elementlari/ https://scientific-jil.org/obr
5. HakimovO. Muhabbatni ko‘zlardan izlang- Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.1996. b-302